

# ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIDA INVERSIYA HODISASI

**Musaeyva Gavhar Musirmonovna**

*Alfraganus universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida inversiya hodisasi mavzusiga bag‘ishlangan. Maqola mazmunida inversiya tushunchasining mohiyati, o‘ziga xosliklari, inversiya hodisasining tildagi vazifalari, semantikasi va ularda aks etuvchi emotsional, ekspressiv ma’no ifodalashi kabi o‘ziga xosliklar masalalari ham keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** *inversiya, doston, vazni, metrika, ritm, lirika, misra, bayt, tilshunoslik, semantika, ekspressiya.*

## **Kirish**

“Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning so‘ngi dostoni bo‘lib, u 1498-1499 yillarda yaratilgan. Muallif bu asarni “Foniy” taxallusi bilan yozgan. U ma’lum ma’noda adibning bolaligida mahliyo qilgan Fariduddin Attroning “Mantiq ut-tayr” (Qush tili) dostoniga javob asardir. U she’riy usulda yozilgan. “Lison ut-tayr” aruzning Ramali musaddasi maqsur (Foilotun-foilotun-foilun) vaznida yozilgan bo‘lib, u 3598 baytdan iborat. Dostondagi boblar alohida epizodlardan, savol -javoblardan, kichik hajmli hikoyat va masallardan tashkil topgan. Dostondagi hikoyatlardan Navoiyga buyuk hikoyanavis sifatida ham qarash mumkin. Mazkur hikoyalar matnida nafaqat adabiyotshunoslar, balki tilshunoslar uchun juda muhim. Zero, dostondagi hikoya matni ma’lum darajada lirik matnlar ifodasidan farq qiladi. Bu esa biz tadqiqotchilarga o‘ta muhim ma’lumotlatni taqdim qila oladi.

## **Asosiy qisim**

So‘ngi yillarda milliy qadriyatlarni tiklash, tilshunoslik va adabiyot tarixi bilan bog‘liq ma’naviy kamolotga erishish masalalariga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbek tilining sofligini saqlash, uning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, dunyo miqyosida yanada rivojlantirish

uchun, davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qaror va farmonlar fikrimizni dalillaydi.

Ta'kidlanganidek, mumtoz adabiy manba sanalgan "Lison ut-tayr" dostoni klassik she'riy o'lchovda yozilgan. Bu she'riy vazn matnning shakllanishida asosiy omil bo'lib, unda til birliklarining turli darajada, turli shakllarda qo'llanishiga sabab bo'lgan. Bu kabi hodisalar ko'proq tilning sintaktik sathida ko'zga tashlanadi. O'ylaymizki, bu kabi she'r tarkibiga kirgan til birliklarining o'ziga xos jihatlari poetik sintaksisning o'rganish ob'yekti sanaladi.

She'riy asarlarni o'qiganda uning sintaktik tuzilishi va uning xilma xil shakllanganligiga e'tibor qaratmasdan bo'lmaydi. Albatta, har bir poetik asarda uslubiy – sintaktik vositalar alohida komponent sifatida ahamiyat kasb etadi. Inversiya uslubiy-sintaktik vositalardan biri sanalib, ularning asosiysidir. "Lison ut-tayr" dostonida adib asar vazni, ritmikasidan kelib chiqib lirik inversiyaning barcha turl va usullaridan ustakorlik bilan foydalangan.

Ma'lumki, tilshunoslikda inversiya deb, gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgarishiga nisbatan ishlatiladi. Odatda, odatdagi tartib bilan joylashgan gap bo'laklaridan qandaydir bir maxsus yoki qo'shimcha axborot (maqsad qilinmaydi) kutilmaydi, shuning uchun ba'zi tilshunoslar uni neytral yoki uslubiy betaraf jumla deb ham aytishadi. Ba'zan mazkur odatiy tartib muallif o'zgartirishi, o'zining izmiga solishi – o'zining ko'zlagan maqsadidan kelib chiqib uning odatdagi tartibini "buzishi" mumkin. Shunga ko'ra ularni ikki turga ajratish o'rinli:

1. Og'aki nutqda va nasriy asarlarda nutq egasi – muallif inversiyaning qo'llanishi bilan turli kutilma mazmunlarni ifodalashi yoki she'riy emotsiyani yuzaga chiqarishi mumkin. Shunigdek, inversiya muallif yoki asar qahramoni nutqiga tantanavorlik, ko'tarinkilik, mazmundorlik bag'ishlash uchun yoki muallifning niyati bilan bog'liq holda yana qandaydir boshqa bir maqsadlar bilan qo'llashi mumkin.

2. She'riy asarlarda esa shoir umumqabul qilingan grammatik nutq normasini buzishi, ya'ni gap bo'laklarining odatdagi ketma ketligi buzishi natijasida sodir etadi. Inversiya sheriylar nutqning asosiy belgilaridan biri sifatida matndagi ko'plab sintaktik qurilmalar majmuini

vujudga keltiradi. Mazkur sintaktik qurilmalar badiiy uslub, jumladan, she'riy asarning emotsional-uslubiy, ekspressiv-uslubiy imkoniyatlarini ochishga olib keladi.

Inversiyada bayt/misra tarkibidagi sintaktik shakllar tartibi o'zgaradi, ammo jumla semantikasi o'zgarmaydi, baytlarning ifoda plani va lirik tasvirlar bayoni kuchayadi. Lirik tasvirga olingan shoir tafakkurida qayta ishlangan voqea-hodisalar, his -tuyg'ular she'riy nutqni jozibador, serjilva qiladi, go'zal ifodalar shakllanadi va shu bayon usuli yetakchilik qiladi. Shu o'rinda, adib dostonidan eng birinchi baytni keltirib o'tsak:

*Jon qushi chun mantiqi roz aylagay,*

*Tengri hamdi birla og'oz aylagay.*

Mazkur baytning sintaktik tuzilishi nutqning odatdagi tartibidan farq qilmaydi. Ammo u o'zining ritmik-sintaktik tuzilishiga (ritmga ko'ra sintaktik shakllarning qayta o'rinishuviga) ko'ra she'riy qiyofa kasb etgan. Boshqacha aytganda, har qanday nutq shakli o'z ritmikligiga ega, va ular shu ritmika asosida axborot uzatishga moslashgan. Ta'kidlanganidek, she'riy nutq boshqa nutq turlaridan ritm va uning asosida kelib chiqadigan ohang (intonatsiya)ga ko'ra va ifodaviyligi, badiiy axborot tashishi bilan farq qiladi.

Bu holat qo'shma gap qismlari orasida ham kuzatiladi, ya'ni she'riy asarning murakkab ritmik-intonatsion tuzilishi bayt/misra tarkibidagi qo'shma gaplarning odatdagi tuzilishiga mos kelishi ham mumkin. natijada qo'shma gap qismlari jiddiy o'zgarishga uchramaydi:

*Odam o'lgan zebi zohirdin demas,*

*Kimki ondin faxr etar odam emas.*

Ikkinchi misra tarkibidagi kimki ondin faxr etar, odam emas grammatik tuzilishiga ko'ra qo'shma gap sanalib, u sintaktik-struktur jihatdan odatdagisidan farq qilmaydi. Taqqoslash uchun: Kimki ondin faxr etar odam emas - Kimki undan faxr etsa, u odam emas. Ammo mazkur konstruksiya elementlari tarkibidagi grammatik shakllar ritm talabiga ko'ra "singan" va uning tarkibidagi boshqa til elementlari mazmuniga singgan. Bunday misollar dostonida ko'plab topiladi:

*Kimga kim insof yo'q-inson emas,*

*Munsiz atvorida juz nuqson emas.*

Ya'ni: Kimdakim insof yo'q bo'lsa, u inson emas kabi.

Dostonda turli gap bo'laklarining odatdagi tartibi o'zgaradi. Ega gap bo'lagi:

*Ko 'kni tun, kundin mulamma' ayladi,*

*Mehru anjumdin murassa' ayladi.*

Shuningdek, dostonda kesim gap bo'lagining ham odatdagi tartibi o'zgarishi kuzatiladi:

*Aylagach doyir to 'quz aflokni,*

*Qosir etti fahmidin idrokni.*

Mazkur baytning birinchi misrasida doyir aylamoq – gapning kesimi (tarkibiga ko'ra qo'shma fe'l) sheriy ritm tasirida tartibi o'zgargan, invergiyaga uchrab jumlaning boshida qo'llanganni hosil qilgan. Ikkincho baytdagi qosir etmoq qo'shma fe'li ham inversiyaga uchragan va odatdagi tartibi o'zgargan. Ammo ularning orasida yana bir inversion farq bor, u ham bo'lsa, qo'shma fe'l komponentlari (qismlari) orasidagi inversiyadir.

Qo'shma fe'l tarkibiy qismlari inversiyaga uchrab bayt misrasining turli o'rinlarida qo'llanadi:

*Sayrdin gardung'a soldi iztiror,*

*Erga oning javfida berdi qaror.*

*Aylagach doyir to 'quz aflokni,*

*Qosir etti fahmidin idrokni.*

Mazkur baytlarda iztiror soldi, qaror berdi; doyir aylagach, qo'shma fe'l tarkibiy qismlari inversiyaga uchrab bayt misrasining turli o'rinlarida qo'llanadi.

### **Xulosa**

Xullas, nasriy asarlarda inversiya gap bo'laklarining o'rni o'zgarishi bilan kechadi, biroq ular o'zining sintaktik vazifasini o'zgartirmaydi. Gapning bir bo'lagini boshqa bo'laklardan alohida ajratib qo'yish asosan tinglovchining diqqatini jalb qilish, badiiy emotsionallikni yuzaga chiqarish, kulminatsion vaziyatlarni anglash uchun qo'llanadi. Shu bois muallif sintaksisning qoidalari biroz chetlab o'tadi. She'riy asarlarda esa inversiya gap bo'laklarining she'riy ritmga bo'ysunishi, ya'ni she'riy asar strukturasida amal qilayotgan ritmik o'lchov (metrika) asosida shoir

tomonidan kiritilishi va asarning ritmik-intonatsion tuzilishida va she'riy ekspressiyaning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, Alisher Navoiyning "Lison ut -tayr" dostonining poetic sintaksisini keng tadqiq etish, unda qo'llanilgan inversiya hodisasini ilmiy dalillash o'zbek tili tarixi, hozirgi o'zbek adabiy tili fani va uning istiqboli uchun muhim vazifalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Navoiy Alisher. Lisonut tayr. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1994. 12-jild.
2. Rahmatov M.M. Alisher Navoiyning g'azallarida inversiya. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiynazariy anjumani materiallari. – T.: TDPU (№7), 2014. – B 52-55.
3. Rahmatov M.M. Alisher Navoiyning poetik asarlarida havola bo'lakli qo'shma gaplar // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – T.: TDPU, son. 2012, – B. 52-55.
4. Mamadaliyeva Z. "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi. Filol.fan.nomz.diss. – T., 2011.
5. Saifnazarov, I., Musaev, F., Khusanov, B., Ernazarova, Y., Xujaev, M., Bekbaev, R., & Ochilova, N. (2025). The Impact of Local Community Education on Sustainable Practices in Eco-Tourism Areas. *Natural & Engineering Sciences*, 10(3).
6. N. Mamajonova. [O'zbek xalq topishmoqlarida metaforik tamg'noning ifodalanishi](#). - «Acta nuuz», 2025, b. 280-282.
7. Xamdullayeva M. Alisher Navoiy lirikasi timsollaridan tamsillar. International scientific journal "Interpretation and researches". Volume 1 issue 15 (61) | ISSN: 2181-4163 | Impact Factor: 8.2, 30. 07. 2025.
8. Жураева, М. А. (2013). Некоторые особенности склонения имен в грамматическом комментарии Абдурахмана Джами «Шарх мулла». Вестник Челябинского государственного университета, (23 (314)), 121-125.
9. Mamajonova, N. (2022). Til darslarida lug 'at boyligini oshirishni ilmiy tadqiq qilish. Scientific journal of the Fergana State University,

- (1), 44-44.
10. Inomjonovna, I. D., & Husanova, U. (2025, May). Alisher Navoiy asarlarida tilning paydo bo'lishiga oid qarashlar. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 162-164).
  11. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.
  12. Evlen, H., Juraev, D., Ziyamukhamedova, U., Khujaev, M., & Jalilov, F. (2025). PLA/Ti6Al4V composite scaffolds for bone tissue engineering: mechanical and thermal properties via FDM and bioprinting. *Journal of Biomaterials Science, Polymer Edition*, 1-25.